

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Kamoliddin Belmatov nomidagi Milliy ta’lim va innovatsiyalar instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "01" 08 oyida "01" 08 sonli buyruqi bilan tasdiqlangan.

QABUL ETILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70210602 –Xattotlik va miniatyura
magistratura mutaxassisligining**

MALAKA TALABI

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta’lim davlat va fan standartlari, Asosiy qoidalar", "Oliy ta’lim va innovatsiyalar va innovatsiyalar va innovatsiyalar", O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq ta’lim standartlari (rankasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmasidagi takliflariga asoslanib ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hujjatida Malaka talablari rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

Toshkent-2024

O‘zR OTFIV
Buyruq № 277
2024 yil "01" 08

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024- yil "01" 08 dagi 277 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar	9
	Kelishuv varag‘i	10

1. Umumiy tavsifi

70210602 – Xattotlik va miniatyura magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70210602 – Xattotlik va miniatyura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimidagi muzey va galereyalar, xalqaro ko'rgazmalarni, restavratsiya laboratoriyalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish, badiiy va estetik jihatlar asosida miniatyura asarlarini yaratish, muzey va galereyalarda miniatyura va xattotlik san'ati bo'yicha mutaxassislik, qo'lyozmalar saqlanadigan barcha ilmiy tadqiqot institutlarida ta'mirlash, galereyalar va qo'lyozmalar uchun ijodiy ishlar ishlash va boshqa tasviriy san'atga oid masalalarni yechish, san'at va madaniyat muassasalarini boshqarishga oid kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- Davlat va xususiy nashriyot va dizayn studiyalar;
- O'zbekiston Badiiy akademiyasi qoshidagi badiiy ijodkorlar uyushmasi;
- Madaniy turizm muassasalari va muzeylar;
- Davlat va nodavlat bosmaxonalari, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, qadimiy qo'lyozmalarni o'rganish muassasalari;
- Ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70210602 – Xattotlik va miniatyura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan sohaga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

Miniatyura va xattotlik bo'yicha turli uslublar va texnikalarida ijodiy faoliyat olib borish;

Mutaxassislikka mos yangi ilmiy-tadqiqot izlanishlar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

Mutaxassislik bo'yicha amaliy masalalarni yechish uchun yangi ilmiy metodologiyalarni qo'llash;

O'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalar mavzusi bo'yicha jahon tasviriy san'at hamda xattotlik va miniatyura sohasiga oid zamonaviy dolzarb muammolarni tadqiq qilish;

Ilmiy ish yaratishda dolzarb muammolarni aniqlash va uni ilmiy o'rganish bo'yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo'lish;

Xorijiy va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda va ko'rgazmalarda ishtirok etish;

Xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarini rejalashtirishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishi;

yuritayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va tatbiq qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

elektron o'qitish usullarini egallashi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

talaba va tinglovchilarni ijodiy fikrlashga unday olishi;

soha bo'yicha mahorat darslarini o'tkaza bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

xorijiy tajribalarni o'rgangan holda o'quv jarayoniga tatbiq etish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyatda undan zamonaviy ilmiy asosda foydalana bilish;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ilmiy tadqiqotlar asosida ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

badiiy tahlil jarayonida fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida doktorant yoki mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish;

mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

kasbiy faoliyatda kompozitsiya qonuniyatlaridan foydalana olishi, grafika-miniatyura uslub va texnikalarini qo'llay olishi;

san'at tarixi, yetuk soha rassomlari, grafika uslub va texnikalari, miniatyura uslub va texnikalari, kompozitsiya qonunlari, rang garmoniyasi, grafika ashyolari va miniatyura ashyolarini bilishi va amalda qo'llay olishi;

Kitob va davriy nashrlarning badiiy yechimi, an'anaviy va zamonaviy miniatyura va kitobot bezagi kompozitsiyalarini yaratish, kitob mahsulotlarini ishlab chiqarish;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00.		Majburiy fanlar	1680	56	1,2,3
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	MKBY1312	Miniatyura kompozitsiyasida badiiy yechim	360	12	1,2,3
1.04	MABY1312	Miniatyura ashyolarida badiiy yechim	360	12	1,2,3
1.05	MAVZU1324	Miniatyurada an'anaviy va zamonaviy uslublar	720	24	1,2,3
2.00		Tanlov fanlari	300	10	1,2,3
		<i>Tanlov fanlari</i>	300	10	1,2,3
	Kvalifikatsiya:	Pedagog-tadqiqotchi, xattot va miniatyura grafika rassomi			
		Jami	1980	66	
3.00.		Ilmiy faoliyat	1620	54	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, grafika, xattotlik, miniatyura, naqqoshlik, kitobat san'ati, janr, maket, kitob, illyustrasiya, qalam, plakat, kompozisiya, komponovka, perspektiva, umumiylik, yaxlitlik, postanovka, panno, levkas, qog'oz oxorlash, sovus, badiiy muharrirlik, sangina, retush, proporsiya, planshet, qoralama, eskiz, dinamika, statika, simmetriya, assimetriya, ritm, shakl, o'lcham, hajm, etyud, faktura, kolorit.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rektor  A. Mirzoraximov

2024-yil " _____ "

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N. Sayfullayev

2024-yil " _____ "

M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  M. Boltabayev

2024-yil " _____ "

M.O'.


**Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq
miniatyura san'ati muzeyi**

Direktori  G. Qarshiyeva

2024-yil " _____ "

M.O'.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais  A.V. Nuriddinov

2024-yil " _____ "

M.O'.

**Pavel Benkov nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi**

Direktori  U. Xakimov

2024-yil " _____ "

M.O'.

